Yoshlar bandligini ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirishda infratuzilma turlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlari haqidagi holatni yaxshilashda iqtisodiy tahlil natijalarini keltiramiz. Chunki dunyoda hech bir davlat yo'qki, aholi muayyan qismining kambag'alligi, jamiyatda faol emasligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmagan bo'lsa. Mamlakatimizdagi tarixiy-ijtimoiy sharoitda kambag'allik muammosiga turli sabablar ta'sirini o'tkazib kelgan. Ba'zi yurtdoshlarimizga ilm, hunar va ko'nikma masalalarida ozgina ko'mak, madad zarur bo'lmoqda. Respublikamiz qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, aholini ehtiyojini to'liq ta'minlash va ortiqchasini xorij mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlariga egadir. Iqtisodiy tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda mahalliy va Xitoy Xalq Respublikasining tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikamizning Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi qadimdan uzumchilik va mayizchilikka ixtisoslashgan "Uchqora" qishlog'i yer sharining 41-meridiani va 41-paralleli qora toshli tog' bag'rida joylashgan. Uzum tarkibidagi shakar miqdori 38% ga yetadi. Sobiq Ittifoq davrida Uchqora mayizini kosmonavtlar iste'mol qilish uchun Moskvadan vakillar kelib, qishloqdagi dehqonlardan uzum va mayiz mahsulotlaridan maxsus buyurtma asosida olib ketishgan. O'zbekistonda uzumlardagi qandlik miqdori 26 foizni tashkil qiladi. Jahondagi uzumlardagi qand miqdori 17-18 foiz bo'lganda uzum iste'mol uchun ishlatiladi. Biroq mazkur tuman tarmoqlarida "Buyurtma stoli" va raqamli iqtisodiyotni joriy etish, zamonaviy va dunyo standartlari talablariga javob beradigan infratuzilmasi subyektlari tashkil etilmagan. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilni yakuni bilan Samarqand viloyatida eng yuqori ko'rsatkich dukkakli ekinlar bo'lib, bu tarmoq rentabellik darajasi 45,5 foizni, chorvachilikda esa baliqchilik tarmog'ida 30,0 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yilda o'simchilikda birgina Samarqand viloyatida eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkichga ega, birinchi o'rinda bo'lgan polizchilik tarmog'ining rentabellik darajasi 48,3 foizni tashkil etdi. Poliz mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 1 106 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar puli 1 640 so'm, undan olingan foyda esa 534 so'm bo'ldi.

Ikkinchi o'rinda bo'lgan mevalilik tarmog'ini rentabellik darajasi 46,5 foizni, meva mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 2 088 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 3 059 so'm, undan olingan foyda esa 971 so'm bo'ldi. Uchinchi o'rinda bo'lgan Sholichilik tarmog'ining rentabellik darajasi 39,6 foizni tashkil etib, sholi mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 3 303 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 4 610 ming so'm, 1 tonna sholidan olingan foyda esa 1 307 so'm bo'ldi. 2021-yilda viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va rentabellik darajasi bo'yicha To'rtinchi o'rindagi Sabzavotchilik tarmog'ining rentabellik darajasi 39,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda Samarqand viloyatida 42,1 foizni tashkil etdi.

Boshqa ko'rsatkichlarning iqtisodiy tahlil natijalari esa 2022-yilda quyidagicha bo'ldi: yetishtirilgan yalpi sabzavot mahsuloti 1 009 489 ming tonnani tashkil etdi, ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun jami xarajatlar 2 276 704 million so'm, jami daromad esa 3 234 276 million so'm, olingan foyda miqdori 957 572 million so'm bo'ldi, 2022-yilda 1 tonna sabzavotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar 2 255 ming so'mni, 1 tonna sabzavot sotishdan tushgan summa esa 3 204 ming so'mni tashkil qildi. 1 tonna mahsulotni sotishdan olingan foyda miqdori 949 ming sum bo'ldi. Agar sabzavotchilik tarmog'ini 2021-yil bilan taqqoslasak, 2022-yilda rentabellik darajasi +2,6 punktga 2021 yilga nisbatan ko'p bo'ldi. 1 tonna sabzavotni sotishdan olingan foyda miqdori 2022-yilda 1 664 ming so'mga 2021 yilga nisbatan ko'p bo'ldi. 2021-yilda esa sabzavot mahsulotlarini 1 tonnasining tannarxi 1 104 ming so'm, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 1 540 ming so'm, 1 tonna sabzavotlardan olingan foyda esa 436 ming so'm bo'ldi. Chorvachilikda 2021-yilda eng yuqori ko'rsatkich asalarichilikda bo'lib, rentabellik darajasi 35,7 foiz, 1 tonna mahsulot tannarxi 40 528 ming so'mni, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 55 000 ming so'm, 1 tonna asalidan olingan foyda esa 14 472 ming so'm bo'ldi. Chorvachilik tarmog'ida 2022-yilda rentabellik darajasi 12,0 foizga tushib qoldi. Agar bu ko'rsatkichni 2021-yil bilan solishtirsak 23,7 punktga kamayib ketdi. Uning asosiy sabablaridan biri, asalchilik bilan shug'ullanuvchi mutasaddilarning bilimsizligi-ilmsizligi, asalari kasalliklarini oldini o'z vaqtida olish, iqlim sharoitini hisobga olmaslik va oziqa ratsionlarining talab darajasida emasligi bo'ldi. 2021-yilda polizchilikning rentabellik darajasi asalarichilikka nisbatan 12,6 punktga yuqori bo'ldi [2,4].

Samarqand viloyatidagi o'simchilik va chorvachilik tarmoqlarining 2021-yil yakuni bilan rentabellik darajasi 25,8 foizni tashkil qildi.

Umumiy holatni iqtisodiy tahlil qilganimizda, o'simchilik tarmog'i chorvachilik tarmog'iga nisbatan rentabellik darajasi yuqori bo'ldi. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (sobiq qishloq xo'jaligi instituti) Samarqand viloyati Agrosanoat majmuasining Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish bo'yicha boshqaruv Kengashining 1987-yil 11-avgust № 5/13 Qaroriga asosan Samarqand shahrida 1989, 1990, 1991 yillarda "Meva-sabzavotlarni iste'molchilargacha yetkazishdagi iqtisodiy va sotsial muammolar yechimi" (rus tilida) mavzusidagi olimlar va pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyasiga binoan "Buyurtma stoli" tashkil qilinib, tovar aylanmasi 1,2-1,5 martaga oshgan edi. Biroq sobiq ittifoq parchalanishidan keyin ushbu "Buyurtma stoli" o'z faoliyatini to'xtatdi.



1-jadval: Samarqand viloyatining o'simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlaridagi yetishtirilgan ayrim mahsulotlarning 2021-2022-yillardagi iqtisodiy tahlil natijalari

№	Hududlar nomi	Yalpi hosil, ming tonna	Jami xarajat, mln. so'm	Jami daromad, mln. so'm	Foyda	Rentabellik darajasi, %	1 tonna mahsulot, ming so'm	
							Xarajat	Daromad
1	2	3	5	6	7	8	11	12
2021	Sabzavot	376 788	415 918	580 253	164 336	39,5	1 104	1 540
2022	Sabzavot	1 009 489	2 276 704	3 234 276	957 572	42,1	2 255	3 204
Жами (+,-)		+632 701	+1 860 786	+2 654 023	793 236	+2,6 punktga	+1 151 [†]	+1 664 [†]
2021	Poliz	48 283	53 384	79 184	25 800	48,3	1 106	1 640
2022	Poliz	92 655	178 957	244 825	65 868	36,8	1 931	2 642
Жами (+,-)		+44 372 [†]	+125 573 [†]	+165 641 [†]	+40 068 [†]	-11,5 [†] punktga	+825 [†]	+1 002
2021	Dukkakli	26 767	124 586	162 639	38 053	30,5	4 655	6 076
2022	Dukkakli	4 383	33 984	49 448	15 464	45,5	7 754	11 282
Жами (+,-)		-22 384 [†]	-90 602 [†]	-113 191	-22 589 [†]	+15,0 punktga	+3 099 [†]	+5 206 [†]
2021	Baliq	21 674	232 992	313 266	80 274	34,5	10 750	14 454
2022	Baliq	16 627	336 066	438 429	102 363	30,0	20 212	26 369
Жами (+,-)		-5 047	+103 074 [†]	+125 163	+22 089	-4,5 punktga	+9 462 [†]	+11 915 [†]
2021	Asal	1 058	42 895	58 212	15 317	35,7	40 528	55 000
2022	Asal	172	12 854	14 372	1 518	12,0	74 909	83 754
Жами (+,-)		-886	-30 041	-43 840	-13 799	-23,7	+34 381	+28 754 [†]
2021 Hammasi: (+,-)		X	7 408 581	9 322 978	1 914 397	25,8	X	X
2022 Hammasi: (+,-)		X	12 208 005	15 975 432	3 767 427	30,9	X	X
HAMMASI (+,-)		X	+4 799 424	+6 652 454 [†]	+1 853 030	+5,1 punktga	X	X

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



Hozirgi kunda ovqatlanish maskanlari, xususi savdo tarmoqlarining ayrimlari tomonidan tashkil etilgan. Lekin, markazlashgan tarzda "Buyurtma stoli" faoliyatini qishloq xo'jaligida tashkil etilayotgan klasterlar tomonidan quyidagi tavsiyalar asosida mahalliy va xorijiy faol tadbirkorlar tomonidan shaffof amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu bois qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish subyektlarini, jumladan, "Baza-qu-rilish obyekti", "Dala-magazin-uy", "Dala-dasturxon", "Vetapteka-chorvachilik majmuasi", "Dala-chorvachilik majmuasi", "Kimyo mas'uliyati cheklangan jamiyati – dala" va boshqa shakllardagi infratuzilma xizmat turlarini ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida qayta tashkil etish va ular faoliyatini raqamlashtirish zarur[9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'ldan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor" [6]. Ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar natijasida xorijiy tajribalaridan misol keltiramiz: Yaponiya paytaxti Tokiodagi aholidan tushgan buyurtmalar joylashgan joyidan qat'i nazar 12 daqiqagacha, Kanada poytaxti Ottavada esa mijozning manziliga 10 daqiqagacha bo'lgan vaqt davomida buyurtmasi yetkazib berilar ekan[9]. 2020 yil 26 mart, PQ-4653-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish" to'g'risidagi qarori qabul qilindi [7]. Ushbu qarorni ijrosini amalga oshirish borasida joylarda amaliy ishlar bajarilmoqda. Bugungi kunda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli ravishda xizmat ko'rsatish subyektlari tomonidan yil davomida nobudgarchilikka yo'l qo'ymasdan iste'molchilarga yetkazib berishda raqamli iqtisodiyotga o'tish, uni hayotga joriy etish ko'p masalalarni hal qilishda o'z o'rniga egadir. Bandlikga erishish, kambag'allikni kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash jarayonlari va xorij investorlarini iqtisodiyotimizga jalb etish, mahalliy va xorij tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi[4].

Shu maqsadda 1 iyundan boshlab "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturi amalga oshirilishi ma'lum qilindi. Unda ishtirok etish ixtiyoriy bo'lishligi ham takidlandi. Dasturga 2023-2024-yilda jami \$1 mlrd ajratiladi. Bu mablag'lar hisobidan tadbirkorga kambag'al oilalar a'zosini kasbga o'qitib, ishli qilishiga qarab, amaldagidan past foizlarda va uzoqroq muddatga kredit beriladi. Tadbirkorning "amaliy monomarkaz" tashkil qilish va jihozlash hamda kasbga o'qitish xarajatlari to'liq qoplab beriladi. Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlarga soliqlardan alohida imtiyozlar berilishi kiitilgan. Jumladan, kamida 20 foiz kambag'al oila a'zosini bir yil davomida ish bilan ta'minlasa, mol-mulk va yer soliqlaridan ozod qilinadi. 5 mln so'mgacha ish haqi to'layotgan tadbirkorlarga ijtimoiy soliq stavkasi 2 baravar kamaytiriladi. Kambag'al oila a'zosi ham daromad solig'idan ozod qilinishi dasturda tasdiqlangan.

Shuningdek, soliq va bojxona ma'murchiligida ham yengilliklar nazarda tutilgan. Xususan, bunday tadbirkorlar faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi. Ularga (QQS) qo'shimcha qiymat solig'i hamda ortiqcha to'langan soliqlar tekshiruvsiz qaytarib beriladi. Barcha soliqlardan qarzdorlikni bir yilgacha kechiktirib to'lash imkoni yaratildi. Bojxona rasmiylashtiruvda "yashil yo'lak" tartibi qo'llaniladi. Dasturga kirgan tadbirkorlarga infratuzilma, yer va bino-inshootlar bilan ta'minlashda qo'shimcha yengilliklar beriladi. Masalan, yer va bino-inshootlarni xususiylashtirishda bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi. Qiymati 50 mlrd so'mdan yuqori loyihalar bo'yicha infratuzilma xarajatlari to'liq qoplab beriladi. Respublikamiz hududlarida istiqomat qilayotgan aholini, jumladan, qurilish sohasida mehnat qilayotgan fuqarolarni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, ekologik toza mahsulotlarni o'z vaqtida ularga yetkazib berishda, qurilishda ishlayotganlarni favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha olim va mutaxassislar tavsiyalarini o'rganishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda saraton va qandli diabet bilan kasallanganlar soni ortib bormoqda. Sabzavotchilik - o'simlikshunoslikning ajralmas tarkibiy qismidir. Shuning uchun sabzavot ekinlarini hamma vaqt ham boshqa ekinlardan ajratib bo'lmaydi. Chunki karam, kartoshka, sabzi kabilarni sabzavot ekinini sifatida oziq-ovqatga, chorva mollari uchun yem-xashak va texnik maqsadlarda ishlatish uchun xom ashyo sifatida yetishtirish mumkin. Sabzavotchilik o'simlikshunoslikning boshqa tarmoqlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: Birinchidan: Sabzavotchilik ikkita: Ochiq maydonda (dalada); Yopiq maydonda ishlab chiqarish usuliga yega. Ikkinchidan: Sabzavotchilik xilma – xil ekinlar, turli xil va navlar to'plamini o'z ichiga oladi. Sabzavot ekinlari 14 ta botanik oilaga mansub 80 ga yaqin turni o'z ichiga olib, shundan 40 ga yaqini O'zbekistonda ekiladi. Uchinchidan: Sabzavotchilikda o'ziga xos ishlab chiqarish usullari (ko'chat yekish usuli, konservalash, qayta ishlash, sublimatsiya qilish). Sublimatorlar qo'yidagi yumushlarni bajaradilar: mahsulotni muzlatish; mahsulotni suvsizlantirish-30 darajada issiqlikda; qadoqlash-kukun holatda). Bu ishlar bilan Toshkentda olimlar – mutaxassislar (Qobilov Ali Qobilovich) ish olib borgan edi. Hozir, boshqa mevalar qatorida olmani shu usulda 1987-yildan buyon saqlab kelayotganligi, ushbu yo'nalishning ilmiy-amaliy asoslaridan hisoblanadi. Ilmiy-amaliy tajribalar va adabiyotlarda aytilishicha, qishloq



xo'jalik mahsulotlarini sublimatsiya qilish natijasida 25 yilgacha saqlash imkoniyatlari bor ekanligi o'rganilgan. Avlodlarimiz, asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tabiiy holda, ya'ni oftobda –yangi somonli loy bilan shuvalgan tomدا yoki yerda, arzon matalar ustida (bo'z, marli, eski brezent), faner, taxtalar ustida (pamidor, o'rik, qovun, olma va boshqa mahsulotlarni) quritib kelishganlar. Tabiiy sharoitda oftobda avlodlar uslublarida quritsak vaqtdan sifatning ayrim ko'rsatkichlarini yo'qotamiz. Havoning doimiy ravishda biz xohagandek o'zgarmay turishiga kafolat berib bo'lmaydi. Natijada vaqtdan yutqazib qo'yish hollari ko'p uchragan. Issiqlik bilan oftobda xozirgidek quritilganda 70-80% o'z holatini o'zgartirib yuborar ekan, sublimatsiya usulida 8-10%. Sublimatsiya natijasida mahsulot 10 marta kichiklashar ekan. Sublimatsiya qilingan o'rik, karam, sabzilar ustida ilmiy-amaliy tajribalar o'tkazilgan. A.Alimov, mutaxassis Uroqov axborotlariga asosan meva – sabzavotlarni 30° issiqlikda yopiq idishda – vakoumda quritilib non mahsulotlarini tayyorlashda uning kukuni solinmoqda. Isroil mamalakati sublimatsiya qilingan mahsulotlarga buyurtmalar berib shartnomalar tuzib sotib olmoqda. Iste'molchilarga buyurtma stollari orqali yil davomida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, o'z vaqtidayetkazib berish kabilar qo'llaniladi. To'rtinchidan: Sabzavotchilik o'z navbatida bir necha tarmoqlarga bo'linadi. Jumladan, sog'lom va sifatli sabzavot urug'larini yetishtirish bilan shug'ullanadi. Birgina misol: Mashhur amerikalik shifokor N. Uoker sabzi haqida ko'plab kitoblar yozgan. Uning sabzi haqidagi bahosi quyidagicha edi: "Sabzi dahshatli saraton kasalligiga qarshi kurashda zamonamizning mo'jizasidir" [3]. Mamlakatdagi muammolarni hal qilish ko'p hollarda kadrlarga bog'liq. Aholini uy-joy, oziq-ovqat bilan ta'minlash borasida o'tkazgan videoselektor yig'ilishlarda "2021-yilda 54 ming oilani uy-joy bilan ta'minlashimiz zarur" – deyilgan edi.

O'zbekistonda aholining ehtiyojini qondirish uchun yiliga kamida 100-150 mingta uy-joy qurish talab etiladi. "O'tgan 4-yilda davlat dasturlari asosida 140 ming yoki yiliga o'rtacha 35 mingdan uy-joylar barpo etilgan bo'lib, bu oldinlari yiliga qurilgan o'rtacha uy-joydan 4-5 baravar ko'p, degani. 2024-yilgi dasturlar ham qabul qilinib, kam ta'minlangan oilalarni uy-joy bilan, jumladan yoshlarni, xotin-qizlarni, boshqa temir daftarga kiritilgan mehnatga yaroqli aholini bandligini ta'minlash va kambag'allikni kamaytirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Biz ilmiy maqolamiz tarkibiga kirgan ayrim yo'nalishlarga o'zimizni ta'rifimizni berishni lozim topdik, ular quyidagilar:

Bizning fikrimizcha: faol tadbirkorlik – bu innovatsion g'oyalar, texnika va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga tashabbus bilan harakat qiluvchi mulkchilikning har xil turlarida va shakllarida mehnat qilayotgan sog'lom, ma'naviy-ma'rifiy yetuklikka intiluvchi, ongli mehnati bilan atrofidagi kishilarga nisbatan o'zining ilmiy-amaliy salohiyoti, vatanga, borliqqa, qariyalarga, nogironlarga va boshqa muhtojlarga mehr beruvchi, tajribasi, asosli tavakkalchiligi yo'nalishlarini hayotda qo'llab kelayotgan, tabiat va jamiyat qonunlaridan to'g'ri foydalana oladigan, iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy (jumladan farosatli), yekologik dunyoqarashni o'zida mujassamlashtirgan va boshqalarga qaraganda ijobiy ustunlikka erishib kelayotgan zamon kutgan kishidir.

Bizning fikrimizcha: ishbilarmonlik-bu mulkchilikning bir xil turida va bir xil shaklida mehnat faoliyatini olib borayotgan, o'zi bajarayotgan yumushini boshqalarga nisbatan yuqori darajada ustamonlik bilan uddalayotgan omma o'rtasida obru-e'tiborga sazavor bo'lib kelayotgan bir sohaning rahbari, mutaxassisi, chorvadori, dehqoni, tomorqa egasi, hunarmandi va kasb egasidir.

Xulosalarimiz:

- 1) 2022-yilni yakuni bilan Samarqand viloyatida eng yuqori ko'rsatkich dukkakli ekinlar bo'lib, bu tarmoq rentabellik darajasi 45,5 foizni, chorvachilikda esa baliqchilik tarmog'ida 30,0 foizni tashkil etdi. 2021-yilda esa, Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida eng past rentabellik darajasi pillachilikda 9,2 foizni; yog'li o'simliklarda-12,5 foizni tashkil etdi;
- 2) Chorvachilikda 2021-yilda eng yuqori ko'rsatkich asalarichilikda bo'lib, rentabellik darajasi 35,7 foiz, 1 tonna mahsulot tannarxi 40 528 ming so'mni, sotilgan 1 tonna tovar uchun pul tushumi 55 000 ming so'm, 1 tonna asaldan olingan foyda esa 14 472 ming so'm bo'ldi. Chorvachilik tarmog'ida 2022-yilda asalarichilikda rentabellik darajasi 12,0 foizga tushib qoldi. Agar bu ko'rsatkichni 2021-yil bilan solishtirsak 2022-yilda 13,7 punktga kamayib ketdi. Uning asosiy sabablaridan biri, asal bilan shug'ullanuvchi mutasaddilarning bilimsizligi-ilmsizligi, asalari kasalliklarini yuqtirmaslikni o'z vaqtida oldi olinmaganligi, iqlim sharoitini hisobga olmaslik va oziqa ratsionlarining talab darajasida emasligi bo'ldi.
- 3) Samarqand shahrida markazlashgan "Buyurtma stoli" mavjud edi, qaytadan takomillashgan holatda tiklash va uni faoliyatini iqtisodiy raqamlashtirish zarur;
- 4) Ayrim tumanlarda, uzoq qishloqlarda mahalliy va xorijiy investorlarni qishloq xo'jaligi tarmoqlariga jalb etish, qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil qilish juda sust.
- 5) Kambag'alchilikni kamaytirish uchun asosan Xitoy Xalq Respublikasi tajribalari va faol tadbirkorlarimizga qo'yilgan talablarga amal qilish, mahalliy sharoitda mulkchilikning har xil turlari hamda shakllarining uzoq qishloqlarda joriy etilmaganligi natijasida bu yo'nalish past darajada bo'lib qolmoqda.

**Takliflarimiz:**

- 1) Mamlakat hududlarida tarmoqlarni, jumladan, qishloq aholisiga uy-joy, asosan qishloqlarda infratuzilma qurilishlarida raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi ustidan doimiy ravishda monitoring nazoratini o'rnatish;
- 2) Olim va pedagoglar ishtirokida ularning ilmiy-amaliy tavsiyalari asosida markazlashgan "Buyurtma stol"lari ishini qaytadan mukammallashgan holda tiklash, ayniqsa qishloqlarda;
- 3) Buyurtma stollari faoliyatiga raqamli iqtisodiyotni joriy etishda rivojlangan davlatlar bilan qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq;
- 4) Kambag'allikni kamaytirish va ishsizlikga barham berish uchun joylarda, ayniqsa uzoq qishloqlarda faol tadbirkorlikda mulkchilikning har xil turlari (ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlari) va shakllarini (yakka tartibdagi tadbirkorlik; xususiy tadbirkorlik; jamoa tadbirkorligi; aralash tadbirkorlik) hayotga joriy etish.
- 5) Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi "Uchqora" qishlog'i uzumlari va mayizlari respublikada har yili o'tkaziladigan "Uzum sayli" tanlov ko'rgazmasida ishtirok etishini ta'minlash.
- 6) Yoshlar bandligini ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirishda infratuzilma turlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlaridan xorij mamlakatlari bilan qo'shma loyihalar va qo'shma korxonalarni ko'paytirish kerak.
- 7) Mamlakatning barcha yo'nalishlarida shaffoflikni (korruptsiyaga yo'l qo'ymaslikni) amalga oshirish maqsadida taraqqiyotga erishish uchun raqamli iqtisodiy bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash dasturini qaytadan tayyorlash va joriy etishni tezlashtirish zarur hamda shartdir.
- 8) Birlashgan Arab Amirligi (BAA), ya'ni Saudiya Arabistoni bilan tuzilgan 14 milliard dollarga hamda Xitoy Xalq Respublikasi bilan imzolangan 15 milliard dollarlik va boshqa xorij hamda mahalliy investorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kiritilgan va kiritilayotgan sarmoyalardan (investitsiyalardan) samarali foydalanish uchun sarmoya kiritgan sarmoyachilar banklarning mas'ullari tomonidan mablag'lardan maqsadli, o'z muddatida shaffof foydanishlikni doimiy nazoratga olishni tashkil etish. Chunki ayrim nopok menejerlar (boshqaruvchilar) va xodimlar tomonidan o'z manfaatlari yo'lida ushbu mablag'lardan foydalanishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma'ruzasi. 2022-yil 24-26-mart kunlari mamlakatimizda ilk bor o'tkazilgan Toshkent shahrida xalqaro investitsiya forumi (TXIF) materiallari.
2. Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi va statistika boshqarmasining 2021-2022-yil yakunlari bo'yicha hisobotlari.
3. Qahhorov B.Sabzi sog'lom: Sabzi (Mashhur amerikalik shifokori N. Uoker sabzi haqida ko'plab kitoblar yozgan. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2002-yil №5 59-bet).
4. Mualliflarning ilmiy va amaliy tadqiqotlari natijalari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 11-martdagi "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6186-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.// "Xalq so'zi", 2020-y., 25-yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 2020-yil 26-martdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish" to'g'risidagi PQ4653-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni.
9. Internet ma'lumotlari va boshqa manbalar.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.